ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDAGI YANGI OZIQ-OVQAT O‘ZLASHMALARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMO VA VAZIFALAR

Nabiyeva Rushana Jamol qizi,
Qarshi davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

Har qanday tilning lug‘at boyligi xalqning boy ma‘naviy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy-siyosiy, umuman, biror-bir jamiyatning borliq haqidagi tasavvurlar yig‘indisini ko‘rsata oladigan xazina bo‘lib, til rivojlanish davrlarining barcha bosqichlarida yangilanib, mukammallik tomon qadam tashlab boraveradi.

Aytish joizki, leksikografik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri, tilni yaxlit sistema sifatida tasvirlash va me'yorga solishdan iborat. Shunday ekan, ilmiy qiymatga ega har qanday *lug‘atlar muhim madaniy boylik sanalib, ular boshqa tillarni o‘rganishda, o‘z tilining imkoniyatlarini to‘laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi*[1]. O.Azizov[2] ta'kidlaganidek, leksikografiya davr taraqqiyoti talablarini qoniqtira oladigan lug‘atlar tilini asoslab berish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi.

O‘zbek tili leksikografiyasi juda qadimiy boy ildizlarga ega bo‘lib, bu haqida E.Umarov[3] o‘zbek tili tarixida XV asrdan to XIX asrgacha yaratilgan lug‘atlar o‘zbek tilining rivojlanib, o‘zgarib kelganligini ko‘rsatuvchi ilmiy ko‘zgu ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ushbu davrda yaratilgan lug‘atlarda jami yigirma mingdan ortiq o‘zbek so‘zlarining orfoepiya, orfografiyasi va ma'nolari haqida noyob ma'lumotlar saqlangan. A.Nurmonov[4] esa o‘rta asr leksikografiyasi haqida so‘z yuritib, bu davrda yaratilgan lug‘atlar, asosan, tarjima va izohli lug‘atlar ko‘rinishida ekanligi, izohli lug‘atlar ko‘proq ayrim mualliflarning, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan so‘zlarni izohlashga qaratilganligini keltirib o‘tadi.

Sir emaski, lug‘at yaratish o‘ziga yarasha mashaqqatli ish bo‘lib, lug‘at tuzuvchidan uzoq vaqt va mehnat talab qiladi. Masalan, rus leksikografi V.Dal[5] rus tilidagi 200 ming so‘zni qamrab oladigan 4 jildlik «Толковый словарь живого великорусского языка» nomli lug‘atini tuzish uchun butun hayotini sarflagan.

Sohaviy leksikani o‘rganish, lug‘at zaxirasini jamlab, umumiy izohli lug‘atlarga qaraganda ixcham ko‘rinishdagi seriyali lug‘atlarni yaratish barcha davrlarda ham lug‘atchilikning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelgan.

Bu borada o‘zbek tilshunosligida Z.Do‘simova, X.Egamovning «Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati» (Toshkent, O‘qituvchi, 1977), M.Asomiddinovaning «Kiyim-kechak nomlari» izohli lug‘ati (Toshkent, Fan, 1981), S.Bulatov, M.Ashirovalarning «Amaliy san'at qisqacha lug‘ati» (Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992), P.Zohidovning «Me'mor olami. Me'moriy lug‘at»i (Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1996), I.Akbarovning «Musiqa lug‘ati» (Toshkent, O‘qituvchi, 1997), M.Saidov, I.Nasriyev, Z.Tohirov, Sh.Ulug‘ovlarning «Ijtimoiy himoya atamalar izohli lug‘ati» (Toshkent, O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007), D.Amirov, A.Atadjanov, D.Atadjanov, Z.Rahimjonov, S.Saidxo‘jayevlarning «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati» (Toshkent, 2010), M.Hasaniyning «Qadimiy bog‘dorchilikning izohli lug‘ati» (Toshkent, O‘zbekiston, 2016), X.Jabborovning «Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati» (Qarshi, Nasaf, 2016), S.Xolmirzayeva, N.Mamasoliyevalarning «Qishloq xo‘jaligiga oid atamalarning izohli lug‘ati» (Toshkent, O‘zbekiston, 2023), B.Matjanovning «Maktabgacha ta'lim tizimiga oid atamalar lug‘ati» (Toshkent, 2023), M.Abdiyev, A.Ibatovalarning «Novvoylik terminlari izohli lug‘ati» (Toshkent, Kafolat print company, 2023) kabi lug‘atlarning yaratilishi sohaviy lug‘atlarning ancha taraqqiy etayotganligidan dalolat beradi.

Afsuski, o‘zbek tilshunosligida leskikografik sohada bajarilgan amaliy ishlar doirasida oziq-ovqat

[1] Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: 1980. – Б. 153.

[2] Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 82.

[3] Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент: 1992. – Б. 34.

[4] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 192-193.

[5] Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. Часть первая. – Москва:1863. – С. 7.

mahsulotlari nomlari yaxlit lug‘at shaklida jamlanib, maxsus tahlil qilingan lug‘atlar deyarli uchramaydi. Pazandachilik sohasiga oid tushunchalar izohlangan leksikografik manbalar sifatida esa «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»[1](2000-2006) va 1982-yil nashr etilgan «Qisqacha uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi»[2] ensiklopedik lug‘atlari, shuningdek, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ni keltirish mumkin. Biroq ushbu manbalar umumiy xarakterda bo‘lgani bois aksariyat oziq-ovqat mahsulotlari nomlari ushbu lug‘atlardan o‘rin olmagan.

Jahon miqyosida yaratilgan pazandachilik sohasidagi lug‘atlarning eng yirigi, shubhasiz, A.Dyumaning «Большой кулинарный словарь»[3]i bo‘lib, fransuz tilidan rus tiliga o‘girgan G.Miroshnichenko ushbu lug‘atda fransuz oshxonasiga xos qiziqarli 800 dan ziyod hikoyalar va pazandachilikka xos bo‘lgan tushunchalar jamlanganligini ta’kidlaydi. Rus pazandachilik sohasida esa V.Poxlebkinning «Кулинарный словарь»[4]i e’tiborga molik bo‘lib, rus pazandachilik sohasiga oid tushunchalar lug‘aviy va retseptiv yo‘sinda izohlangan. E’tiborlisi shundaki, ushbu lug‘atda o‘zbekcha ko‘pgina oziq-ovqat mahsulotlari nomlari ham keltirib o‘tilgan. Masalan, lug‘atda *ayron (айран), bulamiq (буламик), yorma (ёрма), qovurdoq (кавардак), qayla (кайла), qaymoq (каймак), qatiq (катык), kishmish (кишмиш), nisholda (нишалло), somsa (самса), suzma (сузьма), hasip (хасип), chakchak (чак-чак), chalob (чалоп), chalpak (чалпак)* kabi oziq-ovqat mahsulotlari nomlari ham borki, bu rus pazandachilik leksikasining boyishida o‘zbek tilining ham o‘z o‘rni borligidan dalolat beradi.

Olima L.Yelizaveta[5] esa oshpazlik kitoblarining mazmun-mohiyati ovqat tayyorlash bilan bog‘liq an’analar kelajak avlodga aynan retseptlarni yig‘ish orqali amalga oshirilishini va bu qoida dastlabki yaratilgan rus oshpazlik kitoblarida mavjud kamchiliklaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. L.Yelizaveta XX asrda yaratilgan pazandachilik kitoblari haqida fikr bildirar ekan, K.Mahmudovning «O‘zbek taomlari» (Toshkent, O‘zbekiston, 1977), «O‘zbek tansiq taomlari» (Toshkent, Mehnat, 1989) kitoblarini ham sanab o‘tadi. Pazandachilik retseptlarini matn turi sifatida tahlil qilgan P.Burkova[6] esa retsept matnlarini lingvistik tushuncha *«freym»* atamasi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, pazandachilik retsept matnlari «freym»ida *<nom>, <masalliq>, <tayyorlash usuli/ssenariy>, <tayyorlash joyi>, <vaqti>, <ta’m>* kabilar tasvirlanadi.

«Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari» mavzuviy guruhining dialektologik ahamiyati haqida S.Demitriyeva[7] so‘z yuritib, zamonaviy tilshunoslikda tildagi shevalarning leksik tarkibini tizimli o‘rganish har doim asosiy vazifalardan biri ekanligi va ularning leksik atlasini yaratilishida *«oziq-ovqat mahsulotlari nomlari»* mavzuviy guruhi muhim o‘rinda turishini aytib o‘tgan. Y.Pojidayeva[8] esa «pazandachilik» leksik-semantik guruhiga lingvokulturologik baho berib, har qanday tilning umumiy lingvomadaniy sohasida, ovqatlanish madaniyati rivojlanayotgan tizim, bu esa leksikografik diskursda o‘z aksini topishini ta’kidlaydi.

L.Ilyukina[9] oziq-ovqat mahsulotlari nomlari har qanday xalqning moddiy madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlab, til lug‘at qatlamining *artefakt nomlari*[10] qatorida yetakchi o‘rinda turishini keltirib o‘tgan.

Rus tilidagi gastronomik tushunchalarni antroposentrik paradigma metodlari asosida talqin qilgan Y.Yurina[11] «Словарь русской кулинарной метафоры» kitobi gastronomik leksikografiyada yaratilgan lug‘atlar orasida kulinarologik va antroposentrik xususiyatlarni mujassam qilishi bilan ajralib turadi deb hisoblaydi.

Hozirgi rus tilidagi o‘zlashma gastronomik leksikani tadqiq qilgan N.Szinshen[12] dissertatsiya ishining 2-bobi «Hozirgi rus tilidagi gastronomik leksika. Diaxron va sinxron aspekt» deb nomlanadi. Ushbu bobning 3-paragrafida esa gastronomik lug‘atning o‘ziga xos tamoyillari tasnif qilinadi.

---

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. XII жилдли. – Тошкент: “ЎзМЭ” Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.

[2] Қисқача уй-рўзғор энциклопедияси. – Тошкент: “ЎзСЭ” Бош редакцияси, 1982. 560 б.

[3] Дюма А. Большой кулинарный словарь. – Москва: Олимпия пресс, 2006. – 744 с.

[4] Похлебкин В.В. Кулинарьний Словарь. – Москва: Издательство “Э”, 2015. – 456 с.

[5] Елизавета Л.В. Текстовая категория автора в динамическом аспекте (на материале русских кулинарных книг XIX-XXI вв.): Дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург: 2018. – 48 с.

[6] Буркова П.П. Кулинарный рецепт как особый тип текста: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ставрополь: 2004. – 24 с.

[7] Дмитриева С.В. Лексика тематической группы «Питание» в народной речи в ареальном аспекте: На материале псковских говоров: Автореф. дисс. … канд. филол. нау к. – Псков: 1999. – С. 9.

[8] Пожидаева Е.В. Лексикографический дискурс как репрезентант лингвокультуры питания // Проблемы истории, филологии, культуры, 2014. № 3. – С. 119-121.

[9] Илюкина Л.В. Наименования кушаний и напитков в южных (сараевских) говорах рязанской области: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Вологда: 2018. – С. 3.

[10] Artefikat nomlari – insonlar tomonidan yaratilgan, yaratuvchisi va foydalanuvchisining madaniyati haqida ma’lumot beruvchi har qanday narsa. (Ta’kid bizniki, N. R.)

[11] Юрина Е.А. Словарь русской кулинарной метафоры. Принципы отбора материала и структура словарной статьи // Вестник Томск. 2011, №3. – С. 70-78.

[12] Цзиншэн Н. Заимствованная гастрономическая лексика в современном русском языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва: 2024. – С. 15.

N.Szinshen aytganidek, gastronomik lug‘at konseptual/semasiologik, sohaviy/terminologik, gastronimlarning qo‘llanishi va tarqalish ko‘lami, vaqti va til tizimiga kirish darajasi tamoyillari asosida tasnif qilinishi mumkin.

Gastronomik sohaning bir bo‘lagi bo‘lgan oziq-ovqat nomlarini leksikografik tavsif qilish neografik, terminologik, etimologik, dialektologik va ortologik bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda oziq-ovqat nomlari bir necha aspektda tahlil qilinib, turlicha lug‘atlarning obyekti bo‘la oladi. Shuningdek, ushbu lug‘atlar o‘z ichida kichik mavzuviy ruknlarga bo‘linib, ko‘p jildli pazandachilik lug‘atlarining yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, oziq-ovqat nomlari o‘zlashmalari lug‘ati sohaviy lug‘atlar orasida dinamik xarakterga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida yangilanib boraveradi. Rus tilida yaratilgan shunday lug‘atlardan biri T.Belitsa[1]ga mansub bo‘lib, unda fransuz tilidan rus tiliga o‘zlashgan *«moda»* va *«pazandachilik»* semantik guruhiga mansub atamalar izohlanadi.

O‘zbek tili oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarini leksikografik tahlil qilish o‘z oldiga bir qancha muammolarni qo‘yadi va ulardan kelib chiqib ustuvor vazifalar belgilab olinadi.

Avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari o‘zlashma nomlari izohlangan lug‘atlardan biri «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga murojaat qilinsa, arabiy va forsiy o‘zlashmalardan tashqari, boshqa tillar (rus, fransuz, ingliz, italyan, nemis, lotin, ispan, yunon, ukrain, golland, xitoy, gruzin, polyak, rumin, venger, malayya, yapon) dan jami 150 ga yaqin nom izohlanganligini ko‘rish mumkin.

Oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining leksikografik tahlilida bajariladigan amaliy ishlardan biri, albattaki, tahlilga tortilayotgan nomlarning qo‘llanish manbalarini aniqlab olishdir. Bu borada rus tilshunoslari V.Kozirev, V.Chernyak har qanday lug‘at tuzish uchun xizmat qiluvchi manbalar to‘plami sifatida *avval yaratilgan lug‘atlar, lug‘at kartotekalari, lingvistik tajribalar va elektron ma’lumotlar bazalari*[2]ni sanab o‘tishgan.

Tahlilga tortilayotgan oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan e’lon qilinayotgan qonun va qaror matnlari, oziq-ovqat mahsulotlari reestri, oshpazlik sohasiga oid teleko‘rsatuv va radioefirlar, shuningdek, reklama matnlari va taomnomalardan yig‘ib chiqildi.

Asosiy muammolardan biri sifatida oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining son jihatdan behad ortib borayotgani va ularni izohli lug‘atlarga kiritib borish sekin kechayotganligini ham aytib o‘tish joiz. Bu esa tilshunoslar tomonidan yangi o‘zlashma nomlarni saralash – tilning ichki imkoniyatlari asosida muqobilini topish (*po‘rtaxol – apelsin, nonxurush – buterbrod* kabi), tarjima qilish (*morojniy – muzqaymoq, krupa – yorma* kabi) va variantdosh birliklarning maqbulini olish (*kuksu – kuksi, borjomi – borjom, pamilchoy – famil choy* kabi) kabi asosiy vazifalarni yuklaydi.

Shuningdek, o‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rin olgan o‘zlashma oziq-ovqat nomlari ma’nosining birma’nolilikdan ko‘pma’nolilik tomon siljiyotganini tahlil qilish ham yetakchi vazifalardan biri sanaladi. Masalan, «un va un mahsulotlari nomlari» mavzuviy guruhiga mansub *«pasta»* o‘zlashmasi 2020-yil nashr qilingan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da quyidagicha izohlanadi: *Pasta – [ital. pasta – xamir] tibbiyot, kosmetika, pazandalik, rassomlik sohalarida qo‘llanadigan turli xil* ***xamirsimon*** *moddalarning umumiy nomi*[3]. 2022-yil chop etilgan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da esa *tibbiyot, kosmetika, pazandalik, rassomlik sohalarida qo‘llanadigan turli xil* ***suzmasimon*** *moddalarning umumiy nomi*[4] deya ta’riflangan.

Hozirgi vaqtda «pasta» o‘zlashmasi ko‘pma’nolilik kasb etib, oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida *«makaron mahsulotlaridan tayyorlanadigan har qanday sovuq yoki issiq taom nomi»* ma’nosida ham qo‘llanmoqda. Misol uchun zira.uz internet saytida *«pasta»* sarlavhasi ostida *ismaloqli pasta, tovuqli pasta, vegetariancha pasta, qo‘ziqorinli pasta, xolvali pasta*[5] kabi taomlarning tayyorlanishi bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ushbu nom o‘zbek tilida taom nomlaridan biri sifatida qo‘llanayotganidan darak beradi.

Shuningdek, oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining imlo masalasi ham hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan biridir. Bu esa hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlari asosida oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining yagona shaklini belgilab berish masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Buni quyida keltirilgan jadvaldagi ayrim misollar orqali ham kuzatish mumkin:

[1] Белица Т.И. Толковый словарь французских заимствований в русском языке: (на материале тематических полей «Номинации модных реалий» и «Кулинарные термины»). – Новосибирск, 2007. – 223 с.

[2] Козырев В.А., Черняк В.Д. Лексикография русского языка. Век нынешний и век минувший. – Санкт-Петербург: РГПУ, 2015. – С. 7.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – Б. 234.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022. – B. 673.

[5] https://zira.uz/uz/t/pasta/

1. Oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining O‘TIL va imlo lug‘atida berilishi

№	Grafik shakli	Manba til	2006/2020-yildagi O‘TILda	2023-yildagi O‘TILda	2013-yildagi «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»da (N.Mahmudov tahriri ostida)
1	*aguacate*	ispan	–	avokado	avokado (bot.)
2	*antonovka*	rus	–	–	antonovka (olma)
3	*balesh*	tatar	–	–	balish (taom)
4	*bersh*		–	–	bersh (baliq)
5	*baiser*	fransuz	–	–	beze (pishiriq)
6	*borjomi*	gruzin	боржом[и]	borjom	borjom (mineral suv)
7	*борщ*	rus	боршч	borsh	borsh (sho‘rva)
8	*broccoli*	italyan	–	brokkoli	brokkoli (bot.)
9	*frittadella*	italyan	–	–	frikadelka
10	*findik*	turk	–	–	funduq (bot.)
11	*haematogenum*	yunon	–	gematogen	–
12	*grapefruit*	ingliz	–	greypfrut	greypfrut (bot.)
13	*granola*	ingliz	–	–	granula
14	*grille*	fransuz	–	–	gril
15	*hulas*	venger	Гуляш	gulyash	gulyash (taom)
16	*hot dog*	ingliz	–	xot-dog	xot-dog (ovqat)
17	*souffle*	fransuz	–	–	sufle (ovqat)
18	*tomato puree*	ispan+ fransuz	–	–	tomat-pyure

Tilshunos olim O.Shukurov ta’kidlaganidek, odatda lug‘atlar me’yoriylik tamoyiliga amal qiladi. Xususan, izohli lug‘at so‘zning tushuncha shaklidan lingvistik ifodaga o‘tkazish vazifasi bilan shug‘ullanadi. Biroq unda adabiy tilning orfografik, orfoepik, uslubiy kabi me’yorlari uchun tanlangan normalar ham ahamiyat kasb etadi[1]. Shunday ekan, oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining orfografik me’yorlarini ishlab chiqish leksikografik tahlilning dolzarb masalalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarini leksikografik tadqiq qilish ayni vaqtda qator muammolar qurshovida turibdi. Ulardan kelib chiqib esa o‘zlashma nomlarning jonli tildagi statik holati, qo‘llanish ko‘lami, ma’no kengayishi va imlo masalalari kabi vazifalarni belgilab beradi. Bu esa oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarini umumiy va sohaviy lug‘atlarda aks ettirish vazifasini ustuvor qilib qo‘yadi.

Rezyume. Maqolada sohaviy lug‘atlarning bir tarmog‘i bo‘lgan gastronomik lug‘atlarning o‘zbek va jahon tilshunosligida yaratilishi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarini leksikografik tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari izohlangan.

Rezyume. The article provides information about the creation and specific features of gastronomic dictionaries, which are a branch of sectoral dictionaries, in Uzbek and world linguistics. Also, specific features of lexicographic analysis of new loanwords of food names are explained.

Резюме. В статье представлены сведения о создании и особенностях гастрономических словарей, являющихся отраслью отраслевых словарей, в узбекском и мировом языкознании. Также поясняются особенности лексикографического анализа новых заимствованний названий продуктов питания.

[1] Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври) //филол. фан. доктори (DcS) … дисс. – Қарши: 2023. –В. 190.